

## **O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING YALPI ICHKI MAHSULOTDAGI ULUSHI**

**Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmansur o'g'li**  
**Qo'qon universiteti Moliya yo'nalishi 3-bosqich talabasi,**  
**Nuritdinov Jalolxon Tursunboy o'g'li**  
**Qo'qon Universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika"**  
**kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasining bugungi kundagi o'rni, rivojlanish bosqichlari, ko'plab islohotlar, sohaning afzallik va kamchiliklari shuningdek, O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotiga ushbu soha bo'yicha qo'shgilgan o'zgarishlar, islohotlar hamda dasturlar strategiyasi kabi ko'plab dolzarb mavzular yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot sohasi, xizmat ko'rsatish, korrelyatsion koeffitsient, regression model, VIF-mezoni, F-Fisher mezon, xarajat, tushum.

**Kirish:** Bugungi kunda respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida iqtisodiyotni isloh qilish va modernizatsiya qilish jarayonlari xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan. Yalpi ichki mahsulotda, iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida, davlat budjetiga to'lanadigan soliqlarda, yangi ish o'rinlari yaratishda, mamlakatimiz ichki bozorini iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda ushbu tarmoqning ulushi keskin ortib bormoqda. kelajakda bu jarayonni davom ettirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi va yana "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi 325-sonli xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi qarorlari. O'zbekiston Respublikasida 2012-2016 yillarda xizmat ko'rsatish sohasi (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2012 yil, 20-son, 215-modda)» ushbu sohaga, undagi sub'ektlar faoliyati samaradorligini oshirishga, kontseptual sohani belgilashga qaratilgan. rivojlanish yo'nalishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Kichik biznes, insoniyatning hayoti boyicha ahamiyatli sohalardan biridir. Bu sohada yaratilgan ish o'rinlari, o'zaro aloqalar va xizmat ko'rsatish tizimlari orqali insonlar hayotini yaxshiladi va bu sohada ishlayotgan odamlar, yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratish orqali davlat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shadi. Jumladan, xizmatlar sohasi insoniyatning hayoti uchun muhim rolini o'ynaydi. Ushbu sohadagi yutuqlar, ekonomik rivojlanishni kengaytirishi bilan birga, ekologik holatlarni yaxshilashga ham ko'mak beradi.

**Asosiy qism:** Endilikda mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlarni Yalpi ichki mahsulotga ta'siri doirasida aniq statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilib chiqamiz. Ushbu tadqiqotda Stat.uz tarmog'idan olingan ma'lumotlardan foydalanildi. 2007-yildan 2022-yilgacha bo'lgan ma'lumotlar uchun jami Yalpi ichki mahsulot va Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar sohalari bo'yicha jami hisobotlar to'plandi. Tadqiqotda Y sifatida jami Yalpi ichki mahsulot, X sifatida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar deb oldik.

Shunday qilib, yozilgan model chiziqli ko'rinishda va shuning uchun u chiziqli regressiya modelidir. Ushbu tadqiqotda klassik chiziqli regressiya modelini (CLRM), korrelyatsiya koeffitsientlari ( $r_{y/x}$ ), determinatsiya ( $R^2$ ), elastiklik koeffisienti, approksimatsiya xatoligi va Fisher mezonini (F-distribution) taxminlarining empirik ehtimoligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rib chiqiladi.

**1-rasm. Stat.uz saytidan olingan ma'lumotlar(mlrd hisobida)**

|     | yil  | y       | x       |
|-----|------|---------|---------|
| 1.  | 2007 | 28190   | 6202.7  |
| 2.  | 2008 | 38969.8 | 8534.7  |
| 3.  | 2009 | 49375.6 | 11182.1 |
| 4.  | 2010 | 78936.6 | 15214.1 |
| 5.  | 2011 | 103233  | 19556.5 |
| 6.  | 2012 | 127590  | 24841.8 |
| 7.  | 2013 | 153311  | 31409.1 |
| 8.  | 2014 | 186829  | 40187.9 |
| 9.  | 2015 | 221351  | 47269.6 |
| 10. | 2016 | 255422  | 61346.2 |
| 11. | 2017 | 317476  | 69212.7 |
| 12. | 2018 | 426641  | 84433.4 |
| 13. | 2019 | 532713  | 103107  |
| 14. | 2020 | 605515  | 114053  |
| 15. | 2021 | 738425  | 144813  |
| 16. | 2022 | 888342  | 173158  |

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar asosida Stata dasturida ekonometrik tahlilni amalga oshiramiz. Avvalo stata dasturida buyruqlar orqali tahlillarni bajaramiz. Birinchi navbatda sum buyrug'i orqali statistik tahlilni bajaramiz. Bunda undagi ma'lumotlar asosida tahlil qilingan umumiy kuzatuvlar soni, standart xatoliklar, o'rtacha qiymat, minimal qiymat, maksimal qiymatlarini ko'rishimiz mumkin(2-rasm).

**2-rasm. Ma'lumotlarning statistic tahlili.**

. sum y x

| Variable | Obs | Mean     | Std. Dev. | Min    | Max      |
|----------|-----|----------|-----------|--------|----------|
| y        | 16  | 297020   | 266670.6  | 28190  | 888341.7 |
| x        | 16  | 59657.53 | 51403.71  | 6202.7 | 173157.7 |

Berilgan ma'lumot 16ta kuzatuv va 2 ta o'zgaruchidan iborat, bunda o'zgaruvchining o'rtacha qiymati  $y=297020$  va  $x=59657,53$  ga teng.

### 3-rasm. Ma'lumotlarning Korrelyatsion tahlil natijalari

```
. cor y x
(obs=16)
```

|   | y      | x      |
|---|--------|--------|
| y | 1.0000 |        |
| x | 0.9976 | 1.0000 |

Asosiy omil y va unga ta'sir etuvchi omil x orasidagi bog'liqlik  $r=99,76\%$  ga teng, demak asosiy omil va unga ta'sir etuvchi omillar orasida kuchli bog'liqliklar mavjud. Ya'ni xususiy korrelyatsion koeffitsient kuchli va tug'ri bog'lanishga ega.

### 4-rasm. Ma'lumotlarning chiziqli regressiya modelini tahlili

```
. reg y x
```

| Source   | SS         | df | MS         |                 |         |  |
|----------|------------|----|------------|-----------------|---------|--|
| Model    | 1.0617e+12 | 1  | 1.0617e+12 | Number of obs = | 16      |  |
| Residual | 5.0274e+09 | 14 | 359097653  | F( 1, 14) =     | 2956.50 |  |
| Total    | 1.0667e+12 | 15 | 7.1113e+10 | Prob > F =      | 0.0000  |  |
|          |            |    |            | R-squared =     | 0.9953  |  |
|          |            |    |            | Adj R-squared = | 0.9950  |  |
|          |            |    |            | Root MSE =      | 18950   |  |

|       | Coef.     | Std. Err. | t     | P> t  | [95% Conf. Interval] |         |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|---------|
| x     | 5.17553   | .0951845  | 54.37 | 0.000 | 4.971379             | 5.37968 |
| _cons | -11739.32 | 7395.177  | -1.59 | 0.135 | -27600.39            | 4121.76 |


$$y=5.17x-11739.32$$

Yuqoridagi regression tahlil natijasiga asosan parametrlarning ishonchlik koeffitsientida ijobiy natijaga erishildi. Shu natijaga asosan tahlil qiladigan bo'lsak, bevosita regression modelda x (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar) ning 1 birlikga oshishi boshqa omillar nolga teng bo'lganda, y (yalpi ichki mahsulot) hajmini ehtimollik asosida 5,17 birlikdagi miqdorga oshishini bildiradi.

Shuningdek, determinatsiya ( $R^2$ ) koeffitsiyenti tanlangan chiziqli funktsiyani yoki tuzilgan modelni natijaviy belgi dispersiyasini izohlaydi. Yuqoridagi determinatsiya qiymati 0,9950 ga teng, ya'ni tanlangan regressiya tenglamasida aniqlangan natijaviy belgi dispersiyasi 99,50% ni tashkil etishi kelib chiqdi.

4-rasmga ko'ra tuzilgan model parametrlarining t studentning qiymati  $t_a=54,37$  va  $t_b=-1.59$  ga teng. T studentning jadval qiymati esa 1,345ni tashkil etdi. Demak model parametrlari jadval qiymatidan oshganligi sabab ikkala qiymatnixam ishonchlik deb asoslanadi.

**5-rasm. Chiziqli regression model grafigi**



**6-rasm. Ma'lumotlarning approksimatsiya xatoligi natijalari**

```
. gen Aline=abs((y-yhat)/y)*100
```

```
. mean Aline
```

```
Mean estimation          Number of obs   =       16
```

|       | Mean     | Std. Err. | [95% Conf. Interval] |          |
|-------|----------|-----------|----------------------|----------|
| Aline | 8.503742 | 2.007448  | 4.224968             | 12.78252 |

Tuzilgan chiziqli modelning aproksimatsiya xatoligi  $A=8,503742\%$  ni tashkil qildi. Demak  $12\%$  dan oshmaganligi uchun tuzilgan chiziqli model ahamiyatli (yaroqli) ekan.

**7-rasm. Ma'lumotlarning elastiklik koeffisienti natijalari**

```
. margins, eyex(x) atmeans
```

```
Conditional marginal effects          Number of obs   =       16  
Model VCE      : OLS
```

```
Expression      : Linear prediction, predict()  
ey/ex w.r.t.    : x  
at              : x              =    59657.53 (mean)
```

|   | Delta-method |           |       |       |                      |
|---|--------------|-----------|-------|-------|----------------------|
|   | ey/ex        | Std. Err. | z     | P> z  | [95% Conf. Interval] |
| x | 1.039524     | .0253064  | 41.08 | 0.000 | .9899241 1.089123    |

Yuqoridagi elastiklik tahlil natijasiga asosan parametrlarning koeffitsientida ijobiy natijaga erishildi. Shu natijaga asosan tahlil qiladigan bo'lsak, bevosita elastiklik modelda  $x$  (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar) ning 1 foizga oshishi,  $y$  (yalpi ichki mahsulot) hajmini ehtimollik asosida 103,95 foizga oshishini anglatadi birlikdagi miqdorga oshishini bildiradi.

Modelga kiritilayotgan har bir yangi omilning model uchun statistik ahamiyatligini xususiy  $F$  - mezon yordamida tekshirib borish mumkin. Demak, Fisher mezoni ( $F$ ) bo'yicha butun tenglamanigina emas, balki regressiya modeliga kiritilayotgan har bir omilning ahamiyatligini baholash mumkin. Omillararo korrelyatsiyaga muvofiq bitta omilning statistik ahamiyatligi uning modelga nechanchi o'rinda kiritilayotganiga bog'liq bo'lishi mumkin. 4-rasmga asosan  $F_{\text{hisob}}=2956,50$  ga teng ya'ni Fisher mezoning jadval qiymatidan katta va har bir omil ahamiyatli ekanini ifodalaydi.

**Xulosa:** Ushbu tadqiqotda Yalpi ichki mahsulotning korrelyatsion-regression tahlili orqali tushumni oshishiga asosiy ta'sir etuvchi omil kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasi o'z aksini topdi. Bunda tushumni oshirish uchun asosiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasiga yanada rivojlantirish va kengaytirish kerak.

Yuqoridagilardan xulasa qiladigan bo'lsak, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish, aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish hozirgi kunning dolzarb masalalari bo'lib qolmoqda. Shularni inobatga olib ushbu sohani yanada kengaytirish va modernizatsiya qilishdan to'xtamaslik kerak shunda ham Davlatimizga ham tadbirkorga manfaatli bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nazarov V., Dormidontova Y., Lyashok V. (2014). Analysis of factors that influence workers' decision to retire. Journal of the New Economic Association, 4 (24), 66–86 (in Russian).
2. Sabirov X.N. Ekanometrika II. O'quv qo'llanma. "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" 2022, 430 bet.
3. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-ulushi?lang=uz&format=xlsx>
4. <https://api.stat.uz/api/v1.0/data/iqtisodiy-faoliyat-turlari-kesimida-yalpi-ichki-m-2?lang=uz&format=xlsx>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-6185471>